

ZAMONAVIY TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING PSIXOLOGIK PEDAGOGIK MASALALARI

Fayzullayeva Mexriniso Alixonovna

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani MMTBga qarashli 81-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy psixologik va pedagogik masalalar chuqur tahlil qilinadi. Globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji va ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar natijasida o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, emotsional holatiga va motivatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'paymoqda. Maqolada o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi samarali muloqot, individual yondashuv, kreativ fikrlashni rivojlantirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini joriy etish, emotsional intellekt va psixologik salomatlikni ta'minlashga oid masalalar yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy o'qituvchining psixologik kompetensiyasi, innovatsion metodlardan foydalanish, va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, tarbiya jarayoni, psixologik yondashuv, pedagogik muammolar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, emotsional intellekt, o'qituvchi kompetensiyasi, kommunikativ ko'nikmalar, motivatsiya, innovatsion metodlar.

Jannatmakon yurtimizda jamiyki inson nafaqat inson tirik jon borki ularning ushbu manzilda istiqomad qilishi uchun barcha shart sharoitlar yaratilib berilgan va mavjud. Yaratganning o'zi ushbu yurtga rahmat nazari ila boqqanligi hech bir O'zbekistonlik yurtdoshlarimizga sir emas. Yurtimizda mavjud shart sharoitlar dunyo hamjamiyatini ham etiborini tortmoqda. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miramanovich oliy majlisga murajatnomalarida sizlarga yaxshi ma'lumki, dunyodagi ko'pchilik taraqqiy topgan mamlakatlarda davlat rahbarining milliy parlament a'zolari huzurida eng asosiy dolzarb siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy masalalar va jamyatni demokratik rivojlantirish bo'yicha murajaatnoma bilan chiqish tajribasi mavjud. Davlat boshqaruvining bunday demokratik usuli bugun O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, avvalambor, xalq bilan

muloqot prinsipiga g'oyat uyg'un va hamohang bo'lib, bizning ish faolyatimiz samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi deb o'ylayman deya o'z fikrlarini bayon etgandilar. Shukur qiliamizki bizning davlatimiz islohotlari demokratiya tamoyillariga asoslanadi.

Yoshlarimiz va aholi muammolarini o'rganish uchun mahsus kunlar yuqori tashkilotlar tomonidan belgilab qo'yilgan ammo ushbu muammolarni yechimini topishda hamma ham birdek ish va islohotlarni olib bormayotgani davlatimizni yanada rivojlanib keng ko'lamli ishlarni amalga oshirilishiga to'sqinlik qilishini toki o'sha o'z ishiga masulyatsizlik bilan yoki bo'lmasa muammolardan o'zini olib qochib ho'jako'rsinga ish olib borayotgan hodimlar ham oramizda uchrab turayotgani fikrimizcha achinarli ahvol deb o'ylaymiz . Jilg'alar birlashib daryoni hosil etadi . Agarda yurtimizda jonkuyar , fidoiy insonlar faolyat olib borsalar ana o'sha jilg'alar o'z yo'nalishida daryoga quyiladi hali yetib kelmay qurimasdan. Fikrimizcha bugungi kunda ijtimoiy - psixalogik muammolardan birini yuqorida keltirib o'tdik . Ushbu holatni yanada yorqinroq tarzda tushuntirib o'tishni joiz deb bildik. Bilishimizcha muammosiz honadon bo'lmaganidek mammosiz jamyat ham dunyoning hech bir joyida topilmaydi. Bizning vatandoshlarimiz orasida ham ishsizlik muammosi hamyurtlarimizni birmuncha mushkul holatga olib kelayotgani hech birimizga sir emas. O'zimiz qishloqda psixolog vazifasida ishlaganligimiz va vatanga , hamyurtlarga bo'lgan mehr tuyg'usi ushbu ishsizlik muammosini bartaraf etish yo'llarini o'ylab ko'rishga va tafakkur etishga majbur etadi. Maktabni tamomlayotgan va ta'lim olayotgan yosh avlodimiz kelajak hayotlarida oila boqishlari va kelajak avlodlarini mukammal shaxs etib tarbiyalashlari uchun iqtisodiy muammolarini hal etishlari uchun qanday yo'nalishlarda bo'lmasin o'zlarini tiklab ketishlari darkor. Buning uchun astoydil fanlarni o'zlashtirib martabali oliy ta'limda tehsil olayotgan o'quvchilarimiz ham ko'p albatta ammo barcha yoshlarimiz ham fanlarni birdek o'zlashtira olmaydilarku . Barchamizga ma'lumki jannatmakon yurtimizni sarhil mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlari bilan taminlab berilishida qishloq aholisining hizmatlari kata. Ham yurtdoshlarimizni sarhil mevalaru sabzavotlar shirindan shaker qovun-tarvuzlar bilan yurtdoshlarimizni taminlaydi ham o'zining moddiy taminotini ham tiklab oladi .

Bundan tashqari yosh oilalardagi iqtisodiy yetishmovchilikning oqibatida oilalarda vujudga kelayotgan muammolar oqibatida maktabda tehsil olayotgan ko'zmunchoqlarimizning ruhiy holatiga tasir qilayotgani va ushbu holat ayanchli holatlarga olib kelayotgani qalbimizni larzaga keltiradi. Hozzirgi davrda bolalar va ota-onalarning dunyoqarashi bir-biriga mutanosib kelmayotganini barcha omaviy ahborot vositalari , ijtimoiy tarmoqlarning ayrim jonkuyar fuqarolari bong urib takidlamogda. Bunga sabab fikrimizcha ota-onalarning o'zida yetarli miqdorda bilim yetishmayotganligi deb hisoblaymiz. Jamiyatning yuqori qatlami bo'lgan tashkilotlarda husan MFY, QVP va qishloq maktablariga mahsus kuchli bilim egalari ya'ni aholi bilan bemalol fikr almasha olish qobiliyatiga ega shaxslar bilan bola tarbiyasidagi kamchiliklar borasida suxbatlar va tarbiyadagi qusurlar oqibatlari haqida videoroliklar taqdimotlarini tashkil etish joiz deb bilamiz

Muhtaram Prizdidentimiz “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi “ deb nomlangan kitoblarida ”Biz so'ngi yetmish yil mobaynida davlatga qaramlik va sig'inish holatida yashadik. Mamlakatning , undagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat, deb hisoblab keldik, anashu masalada ham Konstitutsiyada tub burilish yasalgan. Yani, Asosiy qonunimizda “davlat, uning idoralari va mansabdor shaxslari jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar”, degan modda kiritilgan. Endilikda inson, uning hayoti, ozodligi, shani, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi”. Xalq davlat idoralariga emas , davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kertak va bu haqiqatni avvalo barcha bo'g'indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur.

Yurtboshimiz o'z xalqi va davlati uchun barcha imkoniyatlar eshiklarini ochib berayotgan bir vaqtda yurtimiz aholisi ham munosib tarzda javob qaytarmog'imiz darkor. Agarda o'zimizda birdamlik , yakdillik ,bag'rikenglik tuyg'ularini yuksaltira olsak va faqat oldinga va yana oldinga intilsak barcha ezgu amallarimizni amalga oshira olamiz. Avvalo harkim turli fikrlash dunyosiga ega . Oiladagi psixologik muhit ko'proq ayollarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun korreksion suhbatlarni onalar uchun alohida va otalar uchun alohida

tashkil etish joiz .Bunga sabab oilaning ustuni bo'lgan otalarimiz ko'pincha mas'uliyat yukini onalarga topshirib qo'yadilar vaholanki ota fikri o'tgan oila farzandlari ta'lim-tarbiya masalasida ancha ilgarilab boradilar . Fikrimizcha sog'lom ruhiyatli va iqtisodiy muammolari bo'lmagan oilalardan yana Al-Beruniy , Al-Farobiy Ibn Sinolar kabi buyuk shaxslar yetishib chiqadilar va jonajon O'zbekistonimiz dovrug'ini butun dunyoga taratadilar.

Abdula Avloniyning tarbiya qilguvchilar tabib kabiturki,tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub ,katta qilmak lozimdur deya takidlab o'tganlari ham bolani yetuk shaxs bo'lib yetilishida oilaviy muhit va tarbiyaning o'rni benihoya katta ekanligini ko'rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh. Mirziyoyev. O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy majlisga MUROJATNOMASI . –Toshkent: “O'zbekiston”NMIU, 2018.-3b.

2.Sh. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston RespublikasiKonstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7-dekabr. –Toshkent: “O'zbekiston”NMIU, 2017.-4-17b.

3.Abdulla Avloniy .Tanlangan asarlar:2 jildlik/To'plovchi nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi B.Qosimov; Izohlar va lug'atni O. To'laboyev tuzgan-Toshkent: “Manavyat”,2009.-36b